



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA EKOLOGIK MUHITNING AHAMIYATI

Abdurashidov Adxamjon

Qo'qon davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası v.b. professori

Email: adxamabdurashidov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20656025>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik muhitning maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidagi o'рни, uning pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, ekologik tarbiyani samarali tashkil etishning zamonaviy usul va vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekologik muhit, bola, ekologik tarbiya, zamonaviy usul, vosita, ekologik ong, innovatsion yondashuv

Bugungi globallashuv sharoitida ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat oldiga tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi yangi va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar nafaqat ekologik tizimga, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiatga ongli munosabatni rivojlantirish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodni ekologik jihatdan to'g'ri tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb pedagogik masalalaridan biridir. Chunki bolalik davri inson shaxsining asosiy psixologik, axloqiy, estetik va ijtimoiy xususiyatlari shakllanadigan eng sezgir va muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga nisbatan mehr, uni asrab-avaylash ko'nikmalari va ekologik ongning dastlabki elementlari aynan o'yin, kuzatish va amaliy



faoliyat jarayonida shakllanadi. Demak, ekologik tarbiya jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab tizimli va izchil ravishda amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda pedagoglar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, tabiat bilan bevosita muloqot, ekskursiyalar, tajriba va kuzatuvlar, didaktik o'yinlar hamda ijodiy faoliyat turlaridan samarali foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Ekologik muhit — bu tabiat, ya'ni yer, suv, havo, o'simliklar, hayvonot dunyosi hamda inson va jamiyatning ular bilan o'zaro uzviy munosabatlar tizimidir. U faqat tabiiy komponentlar yig'indisi bo'lib qolmay, balki inson faoliyati natijasida o'zgarib boradigan murakkab dinamik tizim sifatida ham qaraladi. Shu bois ekologik muhitni to'g'ri anglash insonning tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik muhit nafaqat yashash sharoiti, balki kuchli tarbiyaviy vosita ham hisoblanadi. Chunki bu davrda bola dunyoni bevosita hissiy tajriba orqali idrok etadi, atrof-muhitdagi har bir hodisaga qiziqish bilan yondashadi. Tabiat bilan muntazam va maqsadli muloqot esa uning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Bola tabiat bilan bevosita muloqot qilish jarayonida quyidagi muhim ko'nikma va fazilatlarni rivojlantiradi:

- kuzatuvchanlik va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi, ya'ni tabiatdagi o'zgarishlarni, ya'ni fasllar almashinuvi, o'simliklarning o'sishi, ob-havo hodisalarini sezishni o'rganadi;
- sezgi organlari va idrokini mustahkamlaydi, bu esa uning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- tabiatga nisbatan mehr, g'amxo'rlik va mas'uliyat hissini shakllantiradi, bu esa keyinchalik ekologik madaniyatning asosiga aylanadi;
- estetik didini rivojlantiradi, tabiat go'zalligini his etish va qadrlash ko'nikmasini hosil qiladi.



Ekologik muhit bolalarda hamkorlik, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Masalan, gul ekish, o'simliklarni parvarish qilish yoki tabiat burchagida kuzatuvlar olib borish jarayonida bolalar nafaqat tabiat haqida bilim oladi, balki unga nisbatan mas'uliyatli munosabatni ham o'zlashtiradi. Demak, ekologik muhit maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida kompleks pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, u shaxsning aqliy, hissiy va axloqiy rivojlanishiga birdek ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik muhit maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik holati va emotsional barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tabiat bilan muntazam muloqot bola ruhiyatining sog'lom shakllanishiga yordam beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tabiiy muhit bolalarda ijobiy emotsiyalarni shakllantiradi. Yashil o'simliklar, qushlar ovozi, suvning shildirashi yoki gullarning rang-barangligi bolada xotirjamlik, quvonch va qiziqish hissini uyg'otadi. Bu esa stress va zo'riqish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik muhit bolalarda psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Tabiat qo'ynida vaqt o'tkazish bolaga erkinlik hissini beradi, uning asab tizimini tinchlantiradi va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilaydi. Ayniqsa, ochiq havoda o'yin va mashg'ulotlar bolalarning charchoqni yengishiga yordam beradi.

Ekologik muhit— empatiya, ya'ni hamdardlik hissining shakllantirdi. Bola o'simlik yoki hayvonlarga g'amxo'rlik qilish jarayonida jonli tabiatga nisbatan mehr va javobgarlikni his eta boshlaydi. Bu esa keyinchalik insonlarga nisbatan ham ijobiy munosabatning shakllanishiga zamin yaratadi.

Tabiat bilan bevosita muloqot bolalarda tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Tabiiy muhitning rang-barangligi va o'zgaruvchanligi bolaning fantaziyasini boyitadi, ijodiy o'yinlar va hikoyalar yaratishga undaydi.



Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya maktabgacha ta'lim tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi globallashuv va ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini erta yoshdan boshlab tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Ekologik muhit bolalar uchun nafaqat bilim manbai, balki ularning psixologik, emotsional va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Tabiat bilan bevosita muloqot jarayonida bolalarda kuzatuvchanlik, mehr-oqibat, mas'uliyat va estetik did kabi sifatlar shakllanadi.

Maktabgacha ta'limda ekologik faoliyat turlarining — kuzatuv, o'yin, amaliy mashg'ulot va ekskursiyalarning uyg'un qo'llanilishi bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlab, ularni amaliy ko'nikmalar bilan boyitadi. Bu jarayonda pedagogning roli esa hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish orqali bolalarda ekologik ong va madaniyatni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raximova G. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish metodikasi: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2025. – 112 b.
2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2025. – 180 b.
3. UNESCO. Early Childhood Education for Sustainability. – Paris, 2025. –50 p.